



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

Buxoro, 2022-yil, 29-mart

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2022 йил, 29 марта

БУХОРО – 2022

Илмий анжуманинг дастурий қўмитаси

- | | |
|---|---|
| О.Х.Хамидов | – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис. |
| О.С.Қаххоров | – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Ў.У. Рашидов | – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев
Ю.А. Пўлотова | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
– бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчisi, котиб. |
|
Илмий анжуманинг ташкилий қўмитаси | |
| О.С.Қаххоров | – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини. |
| Г.Т. Зарипов | – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев
Ф.М.Қосимов | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Н.Б.Адизова | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Р.А.Қўлдошев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчisi, аъзо. |
| Р.Х.Жумаев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчisi, аъзо. |

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартағи 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзуусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул мұхаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Тақризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор
Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

1– SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO BAHOLASHNING TATBIQ ETILISHI

СЕКЦИЯ 1: ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING
ZAMONAVIY USULLARI**

A.R.Hamroyev,

BuxDU professori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida ta’lim sifatiga mas‘ul idora, tashkilotlar oldiga “...uzluksiz ta’lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichmabosqich tatbiq etish” kabi qator muhim vazifalar qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta’limining o‘rnini alohida ahamiyatga ega. Jumladan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning bilimini baholash jahon standartlari asosida amalga oshirish bugungi kunda o‘qitish jarayoninini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

PIRLS xalqaro boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushish savodxonligini baholash dasturi o‘tkazish davrlarida zamonga moslashtirib, topshiriqlar mazmuni va mohiyatini takomillashtirib boradi. Masalan, 4-o‘tish davri (PIRLS-2016 yil)da o‘quvchilar topshiriqlarni kompyuterda onlayn tarzida o‘tkazilib, natijalari elektron hisoblashga o‘tkaziladi.

2021-yilda o‘tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida raqamlı format, internet orqali muloqot qilishning ko‘p sonli turlari (forum, chat, blog), ko‘p hollarda matn o‘zaro bog‘langan veb-saytlar kabi raqamlı shakllarga o‘tish rejalashtirildi. Lekin shu bilan birga an‘anaviy format ya’ni kitoblar, jurnallar, xujjatlar va gazetalardagi kabi an‘anaviy yozuv shakllarida ham beriladi. O‘quvchilarga beriladigan materiallar rag‘batlantiradigan va bir butun samaradorlikni oishiradigan va qiziqarli va tasavvur qilish jihatdan yoqadigan sifatida taqdim etiladi.

PIRLS-2021 dasturida moslanuvchan dizayn qo‘llanildi. Xalqaro dasturda qatnashayotgan mamlakatlar o‘quvchilari o‘qish va qismlarni boshqarishadi, har bir mamlakatda alohida turli xil darajadagi test shakllari moslashtirib beriladi. Mazkur yangi g‘oya boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining turli xil o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun o‘qish darajalarining PIRLS o‘lchovini takomillashtirib, o‘quvchilarning faolligini oshirib boradi.

“Agar bu bolalar murakkab matnni o‘qishsa, unda ular faqat aniq tasvirlangan tafsilotlarni topib olishlari mumkin. Ammo agar bolalarga oddiy matn berilgan bo‘lsa yoki matn qismlarga bo‘lib taqdim etilsa, ular og‘zaki va noverbal tekshiriladigan ma’lumotni topib chiqarib (grafikalar yoki diagrammalar yordamida), voqealarini va qahramonlar harakatlarining sabablari to‘g‘risida sodda xulosalar chiqarishlari, voqealar va asosiy g‘oyani sharhlay boshlaydilar.

PIRLSning muhim maqsadi - to‘rtinchli sinfda o‘qish yutuqlari bilan bog‘liq uy, jamoat, məktəb va o‘quvchi omillarini o‘rganish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o‘quv sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘quvchilar, shuningdek ularning ota-onalari, o‘qituvchilari va direktorlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar orqali to‘planadi.

PIRLSning vazifa sifatida topshiriqlarning 10 ta varianti taklif qilingan. Sinovlarda adabiy matn qo‘llanilgan: “Inverted sichqonchalar”, “Bir loy parchasi”, “Gulda gullar”, “Qovoq zilzilani ogohlantiradi”; “Leonardo da Vinchi”, “Antarktida” kabi mashhur ilmiy matnlari; va “Daryo bo‘ylab marshrutda” matnlari berilgan. Sinov topshiriqlarining barcha versiyalari bir xil tuzilishga va qiyinchilik darajasiga ega. Sinovning barcha variantlari ikki qismidan iborat bo‘lib, ularning har biriga 11 dan 14 tagacha savol topshiriqlari berilgan

Бошлангич таълимда халқаро баҳолаши тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар

2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqoqotida materiallar 16 variantda ishlangan bo'lib, ularning har biri bir xil qiyinchilik darajasiga ega bo'lgan. Har bir o'quvchiga ikkita ya'ni badiiy va ilmiy-ommabop matnlar va har bir matn uchun 12-17 ta topshiriqlar berilgan.

PIRLS tadqiqotlari boshlang'ich sinf bitiruvchilarning monitoringi bo'lib hisoblanadi. PIRLS topshiriqlari xaqaro hamjamiyat jamoatchiligi tomonidan kitobni o'qiydigan o'quvchilar uchun eng yaxshi zamonaviy o'qish savodxonligi deb tan olingan.

Nima uchun aynan o'qish savodxonligi ta'lism tizimidagi yutuqlarning markaziy ko'rsatkichi sifatida tan olingan? Chunki matnlardan olingan ma'lumotlarni tushunish va ishlatish qobiliyati har bir bola taqdiriga va mamlakat farovonligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Tadqiqotlar natijasida o'n bir yashar o'quvchiga o'qish savodxonligini juda yuqori darajada bo'lishi umumiy o'rta ta'lism mifikabini tugatgandan keyin ham ta'lism olishni davom ettirish ehtimolini kuchaytiradi.

O'quvchilarda o'qish savodxonligini yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga boshqa savodxonliklarga nisbatan ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatadi

PIRLSga a'zo mamlakatlar besh yilda bir marotoba ta'lism olish natijalariga bog'liq bo'lgan, yaxshi o'ylangan ta'limda o'sish imkonini beruvchi strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratidagan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishadi. Qabul qilinadigan qarorlar ko'laming farqi shundaki unda butun mamlakatning hamda har bir sinf o'quvchisiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan darajada bo'ladi. Mana shunday qarorlar natijasida yoshlarning o'qish savodxonligi taqdiri hal qilinadi. Dasturning har bir (5 yillik) davriy o'tishida tadqiqotning tashkilotchilari topshiriqlar ma'lumotlar bazasini ayni zamon talablariga mos darajadagi dolzarb matnlar bilan moslashtirib borishadi. O'quvchilarning yosh psixologik rivojlanishi o'sib borayotganligini inobatga olib, bolaning ta'lism-tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor qaratib boradi.

STEAM TA'LIMINING QO'LLANISHI, SAMARADORLIGI VA AFZALLIKLARI

N.T.Tosheva, BuxDUPi dotsent

N.Z.Qodirova, BuxDU talabasi

STEAM ta'lism texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.

Kalit so'zlar: o'qitish usuli, fikrlash tarsi, innovatsion taraqqiyot, xalqaro mezon, o'qish savodxonlogi, xorijiy tajribalar, ta'lism sifatini baholash, pedagogik kuzatuv, falsafaviy qarashlar, g'oyalalar, ilovalar.

Образовательная технология STEAM – это новый метод обучения школьников, который отличается от традиционного метода обучения. Он предназначен для одновременного обучения студентов четырем предметам - науке, технологии, инженерному делу, изобразительному искусству и математике. STEAM – это интегрированная предметная система обучения, а не наука.

Ключевые слова: метод обучения, образ мышления, инновационное развитие, международные критерии, читательская грамотность, зарубежный опыт, оценка качества образования, педагогическое наблюдение, философские взгляды, идеи, приложения.

STEAM educational technology is a new method of teaching school students, which is different from the traditional method of teaching. It is designed to teach students four subjects at the same time - Science, Technology, Engineering, Fine Arts, and Mathematics. STEAM is an integrated subject-based learning system, not science.

Keywords: teaching method, way of thinking, innovative development, international criteria, reading literacy, foreign experience, quality assessment of education, pedagogical observation, philosophical views, ideas, applications.

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligiga b'o'g'liq.

STEAM texnologiyasi ta'limgan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagisi faoliyatida juda qo'l keladi. STEAM